



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

ORIENTAL UNIVERSITETI

“BIZNES VA BOSHQARUV” kafedrası

SH.T.BOYMUROTOVA,SH,I.XAMDAMOV,SH.Y.KURBANOVA

**60310100 – “Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)” bakalavriat
ta‘lim yo‘nalishi bank-kredit muassasalarida amaliyot o‘tovchi bitiruvchi
kurs talabalari uchun**

**BITIRUV OLDI MALAKAVIY AMALIYOTNI O‘TASH
BO‘YICHA**

DASTUR

Toshkent – 2025

© G.T. Baymuratova, Sh.I.Xamdamov, Sh.Yu. Kurbanova. 60310100 - “Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)” ta’lim yo‘nalishi bitiruvchi kurs talabalari uchun firma va tashkilotlarda bitiruv oldi malakaviy amaliyotni o‘tish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatma va dastur. Oriental universiteti, 2025. -32 b.

Uslubiy qo‘llanma 60310100 – “Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)” bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bitiruvchi kurs bank-kredit muassasalarida amaliyot o‘tovchi talabalari uchun mo‘ljallangan. Uslubiy qo‘llanma talabalarning tanishuv malakaviy amaliyotini tashkil etish va amaliyot daftarini to‘g‘ri rasmiylashtirishga yordam beradi.

Tuzuvchi:

G.T. Baymuratova - “Biznes va boshqaruv” kafedrasida dotsenti, PhD

Sh.I. Xamdamov - “Biznes va boshqaruv” kafedrasida mudiri, PhD

Sh.Yu. Kurbanova - “Biznes va boshqaruv” kafedrasida dotsent v.b., PhD

Taqrizchilar:

A.A. Shernayev - “Biznes va boshqaruv” kafedrasida professori, DSc

D.Ch.Murodova - TDIU “Bank ishi” kafedrasida, professori

Ushbu dastur “Biznes va boshqaruv” kafedrasining 2025 yil “___” _____
dagi ___- sonli majlisida muhokama etilib, O‘quv-uslubiy kengashida ko‘rib
chiqishga tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri

Sh.Xamdamov

Oriental universiteti O‘quv-uslubiy kengashi tomonidan ma’qullangan va
nashrga tavsiya etilgan (2025 yil “___” _____ - sonli bayonnoma).

KIRISH

Respublikamiz hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali kadrlarni o'z vaqtida zarur ixtisosliklar bo'yicha iqtisodiyot sohalari va tarmoqlari ehtiyojidan kelib chiqqan holda tayyorlash, oliy ta'lim mazmunini bevosita banklar, nobank kredit tashkilotlarning istiqbolli rivojlanish dasturlariga muvofiq shakllantirish, kadrlarni egallagan kasbi va mutaxassisligi bo'yicha ishga joylashtirishga doir qator dolzarb masalalar to'liq yechimini topmagan.

Bank tizimiga zamonaviy servis yechimlari asosida axborot texnologiyalarini, moliyaviy texnologiyalarni keng joriy etish, axborot xavfsizligini lozim darajada ta'minlash, shuningdek, moliyaviy xizmatlar ko'rsatishda inson omili ta'sirini kamaytirish bo'yicha tezkor chora-tadbirlar ko'rish talab etilmoqda.

Banklarning investitsiyaviy jozibadorligini, bank xizmatlari ommabopligi va sifatini oshirish uchun bank sektorini tubdan transformatsiya qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi "2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida" PF-5992-son Farmoni qabul qilindi.

Bank tizimining barqaror rivojlanishini ta'minlash asosan milliy ta'lim tizimini mustahkamlash, uni zamon talablari bilan uyg'unlashtirish asosida jahon andozalari darajasiga chiqarishga katta ahamiyat berib kelinmoqda.

Mazkur amaliyoti dasturi maqsadi 60310100 – Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalari bo'yicha) bakalavriat ta'lim yo'nalishi 5-kurs kechki talabalari uchun tayyorlangan bo'lib, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 1998-yil 30-oktyabrdagi 305-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari talabalarining malakaviy amaliyoti haqida"gi Nizom talablari asosida ishlab chiqilgan. Shuningdek, amaliyot dasturi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-iyuldagi "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3151-sonli Qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashga qaratilgan.

I. BITIRUV OLDI MALAKAVIY AMALIYOTINING MAQSADI VA VAZIFALARI

Malakaviy amaliyotining maqsadi 60310100 – Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) bakalavriat ta'lim yo'nalishi 5-kurs kechki ta'lim shakli talabalarining mutaxassislik fani bo'yicha o'zlashtirgan nazariy bilimlarini chuqurlashtirish va amaliyot bilan mustahkamlash, kasb layoqati va ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

60310100 – Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) bakalavriat ta'lim yo'nalishi 5-kurs kechki ta'lim shakli DTS, o'quv va ishchi o'quv rejasiga muvofiq ishlab chiqarish amaliyoti muddati 4-kursning VIII semestri yakunlangandan so'ng *15 hafta* qilib belgilangan.

Shular bilan bir qatorda, bank tizimidagi o'zgarishlarni inobatga olib, Prezident Farmonlari va Vazirlar Mahkamasi Qarorlarini chuqur o'rgangan holda O'zbekistonda bank ishining rivojlanishiga o'z hissasini qo'shishdir. Shu nuqtai nazardan, qisqa va uzoq muddatli kreditlash, hisob-kitoblarni tashkil qilish va amalga oshirish, marketing izlanishlar hamda bankning boshqa sohalarida talabalarning mustaqil faoliyat ko'rsata olish qobiliyatini shakllantirishdan iborat.

Bitiruv oldi amaliyotning vazifasi tijorat banklari tomonidan ko'rsatilayotgan xizmat va operatsiyalarini o'rganish hamda tahlil qilish, xulosa berish, mavjud muammolar bo'yicha o'z fikrlarini bayon eta olish hisoblanadi.

Malakaviy amaliyot davomida talabalar tomonidan quyidagi vazifalarni hal etish belgilanadi:

– nazariy bilimlarni amaliy bilim va ko'nikmalar orqali chuqurlashtirish va boyitish;

– amaliyot davomida to'plangan iqtisodiy-moliyaviy ma'lumotlarni tahlil qilish va o'zaro bog'liqlikda xulosalar yasash;

– amaliyot natijalari asosida hisobotni sifatli tayyorlash va unda aks etgan materiallarni mazmun-mohiyatini tushunib yetish;

– bank tizimida mavjud muammolarni o'rganish, ularning mohiyatini anglab yetish va yechimini ko'rsata bilish;

– xorijiy tajribalarni va ularda erishilgan innovatsion yutuqlarni mamlakat iqtisodiyotiga tadbiq etish yo'llarini amaliy o'rganish.

Shu bilan birga bitiruv oldi amaliyoti davrida talabalar bank muassasalarini amaliy faoliyati bilangina emas, balki ushbu tashkilotlarning jamoat ishlari bilan ham yaqindan tanishish, ularda faol ishtirok etishlari maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Talabalarning bitiruv oldi malakaviy amaliyoti quyidagi obyektlarda tashkil etilishi ko‘zda tutiladi:

- O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki va uning hududiy bo‘linmalarida;
- O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari va uning hududiy bo‘linmalarida.

I. BITIRUV OLDI MALAKAVIY AMALIYOTI DAVRIDA TALABANING ISH JOYI VA VAQTNING TAQSIMLANISHI

Bitiruv oldi amaliyoti kafedrada belgilangan amaliyot rahbari tomonidan dasturga muvofiq ishlab chiqilgan, kafedra mudiri tomonidan tasdiqlangan kalendar ish rejasi asosida amalga oshiriladi. Amaliyot rahbari har bir amaliyotga chiquvchi talabaga va u borayotgan amaliyot obyektiga individual tarzda yondashgan holda ishni tashkil etadi. Shuningdek, talabaning kalendar ish rejasi aniq maqsadli va natijaga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim.

Bitiruv oldi malaka amaliyotning dastlabki kuni bank boshqaruvchisi va bankning boshqa rahbarlari hamda bank tarkibi bilan tanishuvdan boshlanadi. Bank boshqaruvchisi yoki uning muovini talabalarga bankning ichki tartib intizomi, uning bo‘limlarining ish faoliyati va jamoat ishlari to‘g‘risida qisqacha ma’lumot beradi.

Amaliyot davomida talaba dekanat tomonidan berilgan kundalikni yuritish, unda har kuni bajargan ishlarining qisqacha mazmunini yoritib borishi lozim. Har bir ish kunining oxirida amaliyot joyidagi rahbar talabaning kundalik daftariga o‘z imzosini qo‘yish orqali tasdiqlaydi.

Amaliyot rahbarlari ko‘rsatmalari asosida hamda talabaning shaxsiy faolligi asosida bankning boshqa ko‘rsatkichlarining iqtisodiy tahlili yoki xulosalarini hisobotda keltirilishi mumkin.

Bundan tashqari, talabalar amaliyot yuzasidan o‘zlarini qiziqtirgan masalalar bo‘yicha institutdan tayinlangan ilmiy rahbari yoki kafedraning boshqa o‘qituvchilaridan imkoniyatdan kelib chiqib, haftaning shanba kunlari kafedraga tashrif buyurish yoki aloqa vositalari telefon, (ijtimoiy tarmoqlar) elektron pochta

orqali murojaat qilib, qo‘shimcha maslahatlar olishlari mumkin.

Uzoq viloyat va tuman bank filiallarida malakaviy amaliyot o‘tayotgan talabalar telefon yoki internet vositalari orqali maslahatlar olishlari mumkin.

Bank ishi fakulteti “Bank ishi” bakalavriat ta’lim yo‘nalishida bitiruv oldi amaliyotini o‘tash uchun ajratilgan vaqtning mavzular bo‘yicha taqsimlanishi quyidagi tartibda bo‘lishi tavsiya etiladi:

Amaliyot mavzulari va ularning amaliyot kunlari bo‘yicha taqsimlanishi

Haf- talar	Amaliyotning namunaviy mavzulari	Hartalar soni
1-2	Tijorat banklari passivlari operatsiyalari va bank faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlarining dinamikasi va tahlili (yillik moliyaviy hisoboti bo‘yicha statistik ma’lumotlarni yig‘ish)	2
3-4	Tijorat banklari aktivlari tarkibi va ularning joylashishi hamda sifatining tahlili (yillik moliyaviy hisoboti bo‘yicha statistik ma’lumotlarni yig‘ish)	2
5-6	Bank tomonidan xo‘jalik subyektlarini kreditlash tartibi va mijozni kreditga layoqatliligini baholash tahlili (yillik moliyaviy hisoboti bo‘yicha statistik ma’lumotlarni yig‘ish)	2
7-8	Pul muomalasini tashkil etish, ular bo‘yicha me‘yoriy-huquqiy hujjatlar bilan tanishish va o‘rganish (yillik moliyaviy hisoboti bo‘yicha statistik ma’lumotlarni yig‘ish)	2
9-10	Tijorat banklari tomonidan valyuta operatsiyalarini amalga oshirish tartibi va tahlili (yillik moliyaviy hisoboti bo‘yicha statistik ma’lumotlarni yig‘ish)	2
11-12	Bankning daromadlari, xarajatlari va foydasini shakllanishi va ularning tahlili, mavjud muammolar va ularni hal etish maqsadida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy yo‘nalishlari va mazmunini o‘rganish (yillik moliyaviy hisoboti bo‘yicha statistik ma’lumotlarni yig‘ish)	2
13-14	Tijorat banklarining yangi xizmat turlari va uning qo‘llanilish amaliyoti hamda xorijiy davlatlarning ayni shu tizimdagi ko‘rsatkichlari bilan qiyosiy tahlilini amalga oshirish (yillik moliyaviy hisoboti bo‘yicha statistik ma’lumotlarni yig‘ish)	2
15	Institutdan tayinlangan bitiruv oldi amaliyot rahbari bilan ishlash*	1
Jami		15

**Izoh: Haftaning shanba kunlari talaba olgan ko‘nikmasi va amaliy ma’lumotlar asosida hisobot tayyorlashi maqsadga muvofiq.*

III. BITIRUV OLDI MALAKAVIY AMALIYOTINING MAVZULAR BO'YICHA TAQSIMLANISHI

1-mavzu. Tijorat banklari passiv operatsiyalari va bank faoliyatining asosiy ko'rsatkichlarining dinamikasi va tahlili

Bitiruv oldi amaliyot davrida talabalar dastlab amaliyot o'tayotgan bank faoliyatining asosiy yo'nalishlari bilan tanishadilar. Bankning passiv operatsiyalari, ularning turlari va balansda joylashishi, bank resurslarining shakllanishi va ularning tarkibi, tijorat bankining kapitali uning tarkibi va yetarliligiga qo'yilgan talablarni tahlil qiladi. Shu bilan birga jalb qilingan mablag'lar tarkibi va dinamikasi, tijorat bankining depozit operatsiyalari va ularning turlarini tahlili, aholi omonatlarini qabul qilish tartibini tahlil qilishi lozim.

Bitiruv oldi amaliyoti hisobotida bank balansi ilova qilinadi.

2-mavzu. Tijorat banklari aktivlari tarkibi va ularning joylashishi hamda sifatining tahlili

Talaba o'qish davomida olgan nazariy bilimlari asosida tijorat banklari aktiv operatsiyalari va ularning turlari, bank aktivlari tarkibi va sifatining tahlili va zahiralarning shakllantirilishi, bank aktivlarining daromadliligi, riskliligi, likvidliligi bo'yicha tasniflanishi va ularning tahlilini amalga oshiradi. Bundan tashqari, kredit portfeli tarkibi va dinamikasining tahlili, yo'nalishlar bo'yicha kredit portfelining tasniflanishi, bankda foydalanilayotgan kredit risklari va ularni boshqarish usullarini o'rganishi shart.

Bitiruv oldi amaliyoti hisobotida bank balansi ilova qilinadi.

3-mavzu. Bank tomonidan xo'jalik subyektlarini kreditlash tartibi va mijozni kreditga layoqatliligini baholash tahlili

Mazkur mavzu bo'yicha talaba tijorat banklarining kredit siyosati va uning mezonlari, bank tomonidan xo'jalik subyektlariga beriladigan kredit turlari, ularning qaytarilishi va hisob-kitob jarayoni, kredit yig'majildi tashkil topishi, tijorat banklari tomonidan aylanma mablag'larni to'ldirish uchun beriladigan kreditlarni rasmiylashtirish tartibi va tahlili, kreditga layoqatlilik, uni aniqlash va baholash

ko'rsatkichlari, mijozning kreditga layoqatliligining asosiy ko'rsatkichlari tahlili, "Scoring" usulida mijozning kreditga layoqatliligini baholashni o'rganadi va tahlil qiladi. Shu bilan birga, kredit shartnomasi va uning mazmuni, kreditlar bo'yicha foiz hisoblash va ularni undirish tartibi, kreditlar monitoringi, kreditlarni hisobdan chiqarish amaliyoti, bank tomonidan mikrocredit, mikroqarz hamda mikrolizing berish amaliyoti tahlilini qilishi shart.

Ushbu mavzu bo'yicha bitiruv oldi amaliyoti hisobotiga amaliyot obyektining kreditlash faoliyatiga doir iqtisodiy ko'rsatkichlar va statistik ma'lumotlar ilova qilinadi.

4-mavzu. Pul muomalasini tashkil etish, ular bo'yicha me'yoriy-huquqiy hujjatlar bilan tanishish va o'rganish

Ushbu mavzu bo'yicha talaba tijorat banklarida kassa operatsiyalarini amalga oshirish tartibi, tijorat banklarida kassa prognozini tuzish, kassa qoldig'i, mijozlar uchun limit o'rnatish tartibini o'rganadi.

5-mavzu. Tijorat banklari tomonidan valyuta operatsiyalarini amalga oshirish tartibi va tahlili

Ushbu mavzu bo'yicha talaba valyutani tartibga solish qoidalari va unga rioya etish bilan tanishish, valyuta hisob varaqlarini ochish tartibi, valyuta operatsiyalarining turlari, valyuta kreditlarini berish tartibi va shartlari, xalqaro to'lov shakllari va ulardan foydalanish, xalqaro pul o'tkazmalarini amalga oshirish tartibi va jarayonini o'rganishi shart.

6-mavzu. Bankning daromadlari, xarajatlari va foydasini shakllanishi va ularning tahlili, mavjud muammolar va ularni hal etish maqsadida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy yo'nalishlari va mazmunini o'rganish

Ushbu mavzu bo'yicha talaba bankning foizli va foizsiz daromadlari, bankning foizli, foizsiz va operatsion xarajatlari, tijorat banklari tomonidan to'lanadigan soliq turlari va ularni to'lash tartibini o'rganadi. Shu bilan birga, bank foydasini shakllanishi va uni taqsimlash, bankning rentabellik ko'rsatkichlarini tahlil qilish shart.

Qiyosiy tahlil qilish davomida jadvallar va rasmlar (diagrammalar, chizmalar)

tayyorlash hamda ularning tahlili va izohlarini yozish maqsadga muvofiqdir. Bitiruv oldi amaliyoti hisobotida bankning moliyaviy natijalari ilova qilinadi.

7-mavzu. Tijorat banklarining yangi xizmat turlari va uning qo'llanilish amaliyoti hamda xorijiy davlatlarning ayni shu tizimdagi ko'rsatkichlari bilan qiyosiy tahlilini amalga oshirish.

Ushbu bo'limda talaba banklarning innovatsion xizmatlari va operatsiyalari bilan tanishadi. Jumladan, tijorat banklarining faktoring operatsiyalari va ularni o'tkazish tartibi, lizing operatsiyalarini o'tkazish tartibi va tahlili, plastik kartochkalar va ularni qo'llash amaliyoti, xalqaro plastik kartochkalar va ularni qo'llash, mijozlarga ish joyida va uyida xizmat ko'rsatish, Internet banking va mobil banking hamda boshqa zamonaviy xizmat turlarini o'rganishi shart. Bundan tashqari, amaliyot o'tayotgan bankning xususiyatlaridan kelib chiqib, boshqa yangi bank xizmatlari va operatsiyalarini ham o'rganishi mumkin.

IV. BITIRUV OLDI MALAKAVIY AMALIYOTINI O'TASH DAVRIDA TALABANING MAJBURIYATLARI:

Amaliyot o'tash uchun berilgan muddatda talaba quyidagi qoidalarga bo'ysunishi va ularni bajarishi lozim:

- bankning umumiy va ichki qonun-qoidalarga to'la rioya qilish hamda jamoat ishlarida faol qatnashish;
- institutda olgan nazariy bilimlarni amaliyot bilan mustahkamlash;
- bitiruv malaka ishini bajarishda zarur bo'lgan amaliy ma'lumotlarni to'plash;
- hisobot uchun materiallarni yig'ish va o'rganish bilan doimiy ravishda shug'ullanish;
- amaliyot bo'yicha reja-jadval (kundalik) tutish, bajarilgan ishlarni qayd etib borish;
- dastur va rejada ko'zda tutilgan barcha topshiriqlarni to'liq bajarish, hamda bajarilayotgan ish va uning natijalariga mas'uliyatli bo'lish;

- amaliyot obyekti jamoasining jismoniy hayotida va jamoat ishlarida faol ishtirok etish;
- har bir amaliyot o‘tilgan bo‘lim bo‘yicha alohida hisobot yuritish;
- amaliyotning tugashi bilan amaliyot bo‘yicha hisobotni kafedraga taqdim etish;
- dasturda ko‘rsatilgan barcha vazifalar bo‘yicha yozma hisobot tayyorlash hamda bitiruv oldi malaka amaliyoti o‘talgan amaliyot obyekti boshlig‘i tomonidan yozilgan tavsifnomani ilova qilgan holda, hisobotni komissiya oldida himoya qilish;
- bitiruv malaka ishidagi amaliy ma‘lumotlar, albatta, amaliyot o‘tagan bankka tegishli bo‘lishi;
- bitiruv oldi malaka amaliyot bo‘yicha hisobotda bank ishi hujjatlarining nusxalari ilova qilinishi shart.

Amaliyot tugagandan keyin talaba tayyorlagan hisobotini 2 kun ichida quyidagilar bilan birgalikda:

- amaliyot o‘tash haqidagi buyruqdan nusxa;
- kundalikda amaliyot rahbari imzosi va bankning muhri bilan tasdiqlanishi;
- har ish kunida bajarilgan ishlarni kundalikda to‘liq aks ettirish va bankdan tayinlangan rahbarga (har bir bo‘limda alohida rahbarga) imzolatishi;
- hisobot taqriz va himoya uchun kafedraga topshirilishi shart.

Daftarda bajarilgan ishlar quyidagi shaklda yozib boriladi:

Sana	Amaliyotdagi ish joyi	Bajarilgan ishlar	Rahbarning imzosi

Har bir ish kunining oxirida shu kungi amaliyot uchun rahbarlik qilgan bank xodimi talabaning bajargan ishlarini kundalik daftariga o‘z imzosini qo‘yishi orqali tasdiqlaydi.

“Biznes va boshqaruv” kafedrasini tomonidan belgilangan muddatda talaba hisobotini himoya qilishi zarur.

V. BITIRUV OLDI MALAKAVIY AMALIYOTI BO‘YICHA TIJORAT BANKI VA INSTITUTDAN TAYINLANGAN RAHBARLARNING MAJBURIYATLARI

Kafedradan bitiruv oldi amaliyotiga biriktirilgan rahbarning vazifalari:

- amaliyotga chiqish oldidan talabalar bilan suhbat o‘tkazish va ularni amaliyotni o‘tash tartibi bilan tanishtiradi;
- amaliyot davomida talabalarga zaruriy bo‘lgan nazariy, uslubiy va amaliy yordam ko‘rsatadi;
- bitiruv oldi amaliyotini dastur bilan mos ravishda o‘tishini, yuqori darajada bo‘lishini ta‘minlaydi;
- talabalarni amaliyot obyektining ichki tartib-qoidalarga rioya qilishini nazorat qiladi;
- talabalar tomonidan bitiruv oldi amaliyoti dasturini to‘la bajarilishini, amaliyot natijalari bo‘yicha hisobot tuzilishini nazorat qilishni amalga oshiradi;
- amaliyot yakunida talabaning olgan amaliy ko‘nikmasi haqida amaliyot kundaligining tegishli qismida o‘z fikri va xulosasini bildiradi;
- talabalar tomonidan bitiruv oldi amaliyoti bo‘yicha tayyorlangan, kafedradan ro‘yxatdan o‘tkazilgan hisobotlarga 2 kun ichida taqriz yozadi.

Bitiruv oldi malaka amaliyotiga bankdan tayinlangan rahbarning vazifalari

Bank rahbariyati tomonidan talabaning amaliyoti uchun ma’sul javobgar rahbar biriktirilishi to‘g‘risida buyruq chiqariladi. Bankdan talabaga umumiy rahbar qilib, har bir bank bo‘limida yetakchi mutaxassislardan (asosan bo‘lim boshlig‘i yoki uning o‘rinbosari) rahbar etib tayinlanadi. Bitiruv oldi malaka amaliyoti bo‘yicha rahbar amaliyot boshlanishi bilan uch kun ichida amaliyot o‘tash grafigini quyidagi shaklda tuzishi va grafik asosida amaliyot o‘tishini nazorat qilib borishi talab qilinadi. Bitiruv oldi malaka amaliyoti grafigining namunaviy ko‘rinishi quyidagicha:

Ish joyi	Ish joyidagi rahbarning lavozimi va nasl nasabi	Amaliyot boshlanish muddati	Amaliyotning tugash muddati	Hisobotni rasmiylashtirish va topshirish muddatlari

Bank rahbariyati tomonidan tasdiqlangan grafik asosida umumiy rahbar talabaning o'quv amaliyoti davomida bir ish joyidan ikkinchi ish joyiga joylashtiradi va nazorat qilib turadi.

Bitiruv oldi malaka amaliyotga bankdan tayinlangan rahbarning majburiyatlari:

– talabalarning bitiruv oldi amaliyoti davrida zarur amaliy malaka va mutaxassislik mahoratiga ega bo'lishi uchun shart-sharoitlar yaratadi;

– talabalarga mavjud me'yoriy hujjatlar, ofis texnikalari, jihozlari hamda adabiyotlardan foydalanish imkonini yaratadi;

– har bir bo'limda amaliyot o'tashdan oldin talabaga uni bajarish lozim bo'lgan ish tartibi va usullar xususida tushuntirish ishlarini olib borish, amaliyotni o'tash davomida maslahatlar berib boradi;

– kundalikka yozilgan yozuvlarni to'g'riligini tekshirish va bankning muhri bilan tasdiqlashi;

– talabalarga dasturda ko'rsatilgan ishlarni to'g'ri tashkil qilish va rejalashtirishga, ish yuritish hujjatlarini to'g'ri tuzishga yordam beradi hamda bank operatsiyalariga oid savollari bo'yicha maslahatlar beradi;

– talabalar tomonidan ichki tartib-qoidalar va intizomga rioya qilinishini nazorat qiladi va talabalar tomonidan tartib intizomga rioya qilmaslik holatlari bo'yicha institutga xabar beradi.

VI. TALABANING BITIRUV OLDI MALAKAVIY AMALIYOTI BO'YICHA HISOBOTNI TAYYORLASH, HIMOYA QILISH VA BAHOLASH MEZONI

Bitiruv oldi amaliyoti bo'yicha hisobot har bir ish joyi bo'yicha alohida tuziladi. Hisobot 40-50 bet (ilovalarsiz) hajmda kompyuterda 1 intervalda tayyorlanadi va tikilgan holda topshiriladi. Birinchi mavzuni yoritishdan avval amaliyot o'tilgan joy, ya'ni tijorat banki haqida umumiy ma'lumotlar keltirib, bunda quyidagilarni yoritish talab qilinadi:

- tijorat banki to'g'risida umumiy ma'lumot;
- amaliyot davrida qaysi mavzular bilan tanishildi;

- bank bo‘limlarining tuzilishi, shtatlar jadvali;
- xizmat ko‘rsatiladigan mijozlar soni;
- banklarning amalga oshiriladigan operatsiyalari soni;

Asosiy mavzular bo‘yicha talaba hisobotda quyidagilarni ko‘rsatishi kerak:

- hisobot qaysi mavzu bo‘yicha tuzilgan va shu mavzu bo‘yicha ish o‘rinlarida qaysi muddatlarda amaliyot o‘tildi;
- qanday ish turlari bilan tanishib chiqildi;
- tijorat banklarida kredit, hisob-kassa, depozit operatsiyalarini amalga oshirish tartibi;
- amaliyot davrida tijorat bankidagi salbiy holatlar, amaliyot o‘tishdagi qiyinchiliklarni ko‘rsatish va tavsiyalar berish.

Har bir yoritilgan mavzular amaliy misollar va rasmiylashtirilgan hujjatlar bilan to‘ldirilishi kerak. Masalan, front ofis tomonidan amalga oshiriladigan ishlarning har biriga izoh beriladi va to‘ldirilgan nusxalari qo‘yiladi. Agar hujjatlarning nusxalarini olish imkoniyati bo‘lmasa, bo‘sh blankalarni qo‘lda ham to‘ldirish mumkin bo‘ladi.

Talabalar amaliyot jarayonida quyidagi qonun xujjatlari bilan tanishib chiqishlari va o‘rganishlari zarur:

“Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonun va unga sharhlar;

“Markaziy bank to‘g‘risida”gi Qonun va unga sharhlar;

O‘zbekiston Respublikasining “Valyutani tartibga solish to‘g‘risida”gi qonuni. 2003 yil 11 dekabr. - №556-II. O‘zbekiston Respublikasining valyutani tartibga solishga oid normativ-huquqiy hujjatlari to‘plami. – Toshkent: O‘zbekiston, 2011.- 456 b.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – Toshkent, 2017. – № 6 (766). – 70-modda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2 sentyabrdagi «Valyuta siyosatini liberallashtirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi

PF-5177- sonli Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – Toshkent, 2017. – № 6 (766).

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 9 yanvardagi PF-5296 sonli “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami. – Toshkent, 2018.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 3 iyuldagi PQ-3832-sonli “O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 12 sentyabrdagi PQ-3270-sonli “Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – Toshkent, 2015.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 13 sentyabrdagi PQ-3272-sonli “Pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – Toshkent, 2017.

Hisobotga ilova qilinishi zarur bo‘lgan hujjatlar:

- tijorat bankining tashkiliy tuzilishi;
 - tijorat banki har bir bo‘limining funktsional vazifalari tavsifi;
 - tijorat banki filialining Nizomi va uning sharhi;
 - bo‘limlar ish rejaları va ularning bajarilish holati tahlili;
 - tijorat bankining hududiy bo‘limlarining hisobotlari, ular asosida tahliliy jadvallar;
 - tijorat bankining moliyaviy hisobotlari;
 - kredit ajratish uchun zarur bo‘lgan hujjatlar tarkibi va tartibining tahliliga oid ma’lumotlar;
 - blokcheyn texnologiyalaridan foydalanish uchun hujjatlarni tayyorlash ma’lumotnomalari;
 - kreditni rasmiylashtirish bilan bog‘liq normativ hujjatlar sharhi;
- Hisobotda o‘rganilishi lozim bo‘lgan har bir mavzu bo‘yicha bajarilgan ishlar

ko'rsatilib, ilova qilingan hujjatlarga izoh berish talab etiladi.

Bitiruv oldi malakaviy amaliyoti tugagandan so'ng hisobot 10 kun ichida "Bank ishi" kafedrasiga taqdim etiladi. Bunda talaba quyidagilarni topshirishlari lozim:

1. Buyruqdan ko'chirma;
2. Talaba tomonidan to'ldirilgan va tijorat banki tomonidan tayinlangan amaliyot rahbarining xulosasi ko'rsatilgan kundalik;
3. Amaliyot dasturida ko'rsatilgan har bir bo'lim bo'yicha bajarilgan va o'rganilgan ishlar bo'yicha yozma hisobot.

Hisobot tituli amaliyot dasturning 8-ilovasida keltirilgan namunadagi kabi rasmiylashtirilishi lozim. Talabaning hisoboti institutdan tayinlangan rahbar tomonidan tekshirilib, yozma ravishdagi taqriz bilan birga 3 kun ichida talabaga qaytariladi. Taqrizda amaliyot bo'yicha hamda tekshirish uchun qabul qilingan hisobotning kamchiliklari, xatolari shu bilan birga yutuqlari ham ko'rsatiladi. Talaba hisobotni kafedra mudiri tomonidan tasdiqlangan komissiya oldida himoya qilgunga qadar taqrizda ko'rsatilgan barcha kamchiliklarni bartaraf etish lozim.

Hisobot O'quv-uslubiy boshqarma va "Bank ishi" kafedrasini tomonidan belgilangan muddatlarda hisobot qabul qiluvchi komissiya oldida og'zaki (taqdimot shaklida ham) himoya qilinadi.

Bitiruv oldi amaliyoti bo'yicha hisobotning himoyasini qabul qilish orqali talabaning nazariy jihatdan olgan bilimlari, mustaqil fikrlay olish qobiliyati, uning dunyoqarashi, nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lay olishi, amaliy bilim darajasi alohida hisobga olinadi. Amaliyot hisoboti 5 ballik tizimda baholanadi va natijasi himoya komissiyasi tomonidan tegishli tartibda rasmiylashtiriladi.

Amaliyot natijasi bahosi talabaning kursdan-kursga o'tishi va stipendiya belgilashda asos bo'ladi. Amaliyot yakuni kafedra yig'ilishi va amaliyot obyektining ishlab chiqarish kengashida muhokama qilinadi. Institut va fakultet Kengashida amaliyotning natijalariga yakun yasaladi.

TALABANING BITIRUV OLDI MALAKAVIY AMALIYOTI HISOBOTINI HIMOYA QILISH BO‘YICHA BAHOLASH MEZONLARI:

Baholash	Talabanning bilim darajasiga qo‘yiladigan asosiy talablar
90-100 ball (a'lo)	Amaliyot daftari talaba tomonidan to‘liq va to‘g‘ri rasmiylashtirilishi, barcha savollarga javob bera olishi, talaba amaliyot daftarida ma‘lumotlarni tahlil etishi va mustaqil bayon etishi hamda barcha bajargan ishlari bo‘yicha yakuniy fikr va xulosalar bildiradi olishi, huquqiy-me‘yoriy hujjatlarning mazmunini yoritadi olishi va u bo‘yicha o‘zgarishlarni tushuntiradi olishi
70-89,9 ball (yaxshi)	Amaliyot daftari talaba tomonidan to‘liq va to‘g‘ri rasmiylashtirilishi, talabanning nazariy jihatdan olgan bilimlarini amaliyot daftarida keltirilgan amaliy ma‘lumotlar asosida izohlashi, amaliyot obyekti moliyaviy ko‘rsatkichlariga oid ma‘lumotlarni tahlil qila olishi hamda ularga o‘zining obyektiv xulosasini bera olishi
60-69,9 ball (qoniqarli)	Amaliyot daftari talaba tomonidan to‘liq va to‘g‘ri rasmiylashtirilishi hamda amaliyot obyekti umumiy faoliyati to‘g‘risidagi va amaliyot bo‘yicha savollarga javob bera olishi
59,9 va undan past ball (qoniqarsiz)	Amaliyot daftari talaba tomonidan to‘liq va to‘g‘ri rasmiylashtirilmaganligi, amaliyot bo‘yicha savollarga javob bera olmaganligi, bu haqda yetarli tushunchaga ega bo‘lmaganligi

Bitiruv oldi amaliyot davrida amaliyotga to‘liq qatnamagan, amaliyot dasturini to‘liq bajarmagan, amaliyot bo‘yicha salbiy taqriz olib, hisobotni qayta ishlamagan talabalar hisobot himoyasiga qo‘yilmaydi. Shuningdek, hisobot himoyasidan “qoniqarsiz” baho olgan talaba tegishli tartibda va amaldagi huquqiy-me‘yoriy hujjatlarga muvofiq kursdan-kursga o‘tkazilmaydi, 4-kursda qoldiriladi va kelasi o‘quv yili talaba amaliyotni qayta o‘taydi.

Bitiruv oldi malakaviy amaliyoti hisoboti himoyasining baholanishidan norozi talabalar natijalar e‘lon qilingan kundan boshlab bir kun davomida fakultet dekaniga yozma ariza bilan murojaat etishlari mumkin. Bunday hollarda kafedra mudirining taqdimnomasiga ko‘ra fakultet farmoyishi bilan uch nafar a‘zodan kam bo‘lmagan tarkibda appelyatsiya komissiyasi tuziladi. Ushbu komissiya ishtirokida bitiruv oldi amaliyoti hisoboti himoyasi qayta tashkil etiladi.

Talabanning bitiruv oldi malakaviy amaliyoti hisoboti himoyasining natijalaridan olgan ballari himoya yakunida reyting qaydnomasi va daftarchasiga qayd etiladi.

Bitiruv oldi amaliyoti hisoboti o‘rnatilgan tartibda kafedrada saqlanadi.

1-ilova

Bank kapitali tarkibi haqidagi ma’lumotlar			
Ko’rsatkichlar va yillar	01.01.2022	01.01.2023	01.01.2024
Jami kapital			
shundan, ustav kapitali			
I darajali kapital			
II darajali kapital			
Jami regulyativ kapital			

2-ilova

Bank depaziti tarkibi haqidagi ma’lumotlar			
Ko’rsatkichlar va yillar	01.01.2022	01.01.2023	01.01.2024

3-ilova

Tijorat banklari aktivlari tarkibi va ularning joylashishi hamda sifatining tahlili			
Ko’rsatkichlar va yillar	01.01.2022	01.01.2023	01.01.2024

4-ilova

Tijorat banklari tomonidan valyuta operatsiyalarini amalga oshirish tahlili			
Ko’rsatkichlar va yillar	01.01.2022	01.01.2023	01.01.2024

5-ilova

Bankning daromadlari tahlili			
Ko'rsatkichlar va yillar	01.01.2022	01.01.2023	01.01.2024

6-ilova

Bankning xarajatlari tahlili			
Ko'rsatkichlar va yillar	01.01.2022	01.01.2023	01.01.2024

7-ilova

Bankning foydasi tahlili			
Ko'rsatkichlar va yillar	01.01.2022	01.01.2023	01.01.2024



8-ilova

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

ORIENTAL UNIVERSITETI

“BIZNES VA BOSHQARUV” kafedrası

**63010100 – “Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)”
bakalavriat ta’lim yo‘nalishi 4-kurs ____-guruh talabasi
_____ning**

AMALIYOT DAFTARI

Toshkent-2025

4-kurs _____ guruh talabasi _____ ning
(ismi-sharifi)

Amaliyot joyi _____
(amaliyot obyektining to'liq nomi va manzili)

Amaliyot o'tash muddati _____ yil « _____ » _____ dan _____ yil « _____ » _____ gacha
Institutdan tayinlangan rahbar _____
(ismi-sharifi)

Kafedra mudiri _____ **i.f.f.d SH.I.Xamdamov**
(imzo)

Talaba _____ yil « _____ » _____ da amaliyot joyiga
keldi.

Amaliyot o'tash joyidan tayinlangan rahbar _____
(ismi-sharifi)

Bank (filiali) rahbari _____ _____
(ismi-sharifi) (imzo)

(muhr o'rni)

AMALIYOT O‘TASH QOIDALARI:

1. Belgilangan muddatda amaliyot o‘tash joyiga borish;
2. Amaliyot o‘tash joyidan tayinlangan rahbar bilan amaliyot o‘tash rejasini kelishish;
3. Amaliyot o‘tash bo‘yicha institut tomonidan berilgan dastur asosida amaliyot o‘tash va amaliyotdaftari rasmilashtirish;
4. Amaliyot dasturi mavzularining har biri bo‘yicha yozilgan xulosalarning ishonchligi va asoslilikini hududiy moliya organi rahbarining imsozi va mahri orqalai tasdiqlatish.

AMALIYOT O‘TASH REJA JADVALI

Haf-talar	Amaliyotning namunaviy mavzulari	Ish kunlari soni
1.	Tijorat banklari passivlari operatsiyalari va bank faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlarining dinamikasi va tahlili (yillik moliyaviy hisoboti bo‘yicha statistik ma‘lumotlarni yig‘ish)	2
2.	Tijorat banklari aktivlari tarkibi va ularning joylashishi hamda sifatining tahlili (yillik moliyaviy hisoboti bo‘yicha statistik ma‘lumotlarni yig‘ish)	2
3.	Bank tomonidan xo‘jalik subyektlarini kreditlash tartibi va mijozni kreditga layoqatliligini baholash tahlili (yillik moliyaviy hisoboti bo‘yicha statistik ma‘lumotlarni yig‘ish)	2
4.	Pul muomalasini tashkil etish, ular bo‘yicha me‘yoriy-huquqiy hujjatlar bilan tanishish va o‘rganish (yillik moliyaviy hisoboti bo‘yicha statistik ma‘lumotlarni yig‘ish)	2
5.	Tijorat banklari tomonidan valyuta operatsiyalarini amalga oshirish tartibi va tahlili (yillik moliyaviy hisoboti bo‘yicha statistik ma‘lumotlarni yig‘ish)	2
6.	Bankning daromadlari, xarajatlari va foydasini shakllanishi va ularning tahlili, mavjud muammolar va ularni hal etish maqsadida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy yo‘nalishlari va mazmunini o‘rganish (yillik moliyaviy hisoboti bo‘yicha statistik ma‘lumotlarni yig‘ish)	2
7.	Tijorat banklarining yangi xizmat turlari va uning qo‘llanilish amaliyoti hamda xorijiy davlatlarning ayni shu tizimdagi ko‘rsatkichlari bilan qiyosiy tahlilini amalga oshirish (yillik moliyaviy hisoboti bo‘yicha statistik ma‘lumotlarni yig‘ish)	2
8.	<i>Institutdan tayinlangan bitiruv oldi amaliyot rahbari bilan ishlash*</i>	1
	Jami	15

* *Eslatma: Talaba institutdan biriktirilgan amaliyot rahbari bilan maslahatlashgan holda, haftaning shanba kunlari o‘rgangan bilim, ko‘nikma, malaka va amaliy ma‘lumotlarga asoslanib, ishlab chiqarish malakaviy amaliyoti to‘g‘risida amaliyot daftari xulosalar yozadi.*

Institutdan tayinlangan rahbar

_____ (ismi-sharifi)

_____ (imzo)

Amaliyot o‘tash joyidan tayinlangan rahbar

_____ (ismi-sharifi)

_____ (imzo)

Tayyorladi _____ kurs _____ guruh talabasi _____ Amaliyot rahbari: _____ _____	Kafedra tomonidan ro'yxatga olingan tartib raqami № _____ “ _____ ” _____ 2025-y. _____ (<i>imzo</i>)
--	---

Bitiruv oldi malakaviy amaliyoti yakuni bo'yicha talabaning bahosi _____ baho Amaliyot rahbari: _____ (ismi-sharifi) (imzo) (sana) _____
